

## **Qoraqalpog'iston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari**


*2025-yil yanvar-iyun oylari uchun*

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- IV. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- V. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### **I. Jami bajarilgan qurilish ishlari**

2025-yilning yanvar-iyun oylarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida jami 4 618,8 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 105,7 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



2025-yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida, xususan, Nukus shahri (908,0 mlrd so'm), To'rtko'l tumani (395,3 mlrd so'm) va Ellikqal'a tumanida (275,0 mlrd so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.



**Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati**

	<b>Hajm, mlrd so'm</b>	<b>O'sish sur'ati, %</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	<b>4 618,8</b>	<b>105,7</b>
Nukus shahri	908,0	103,0
<i>tumanlar</i>		
Amudaryo	198,4	105,6
Beruniy	227,1	103,3
Bo'zotov	49,3	142,0
Qorao'zak	50,2	126,2
Kegeyli	64,1	100,2
Qo'ng'irot	157,0	108,3
Qonliko'l	47,2	117,6
Mo'ynoq	119,3	68,6
Nukus	183,0	111,2
Taxiatosh	152,3	104,7
Taxtako'pir	42,4	125,9
To'rtko'l	395,3	106,7
Xo'jayli	180,8	101,5
Chimboy	86,3	119,5
Shumanay	50,8	131,5
Ellikqal'a	275,0	102,8

**II. Umumiylajmi yangi qurilish, rekonstruksiya,  
kengaytirish, texnik qayta jihozlash ishlari**

Bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringin 72,5% i yoki **3 347,7** mlrd so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan. Jumladan:

Yirik qurilish tashkilotlari – **206,6** mlrd so'm, *jamiga nisbatan ulushi – 6,2 %*;

Kichik korxona va mikrofirmalar – **1 640,2** mlrd so'm *hamda ulushi – 49,0 %*;


Norasmiy sektor – **1 500,9** mlrd so'm *hamda ulushi – 44,8 %*.

### III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 68,7 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 93,4 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 23,5 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 134,2 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 7,8 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 212,5 % ni tashkil etdi.

#### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



#### Bino va inshootlar qurilishining asosiy ko'rsatkichlari


Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulot (mahsulot, ish, xizmat)lar statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi" ko'rsatkichi qo'llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 3,6 % ni tashkil etib, 2024-yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 3,1 % ga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,6 % ga kamayib 44,5 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2024-yilning mos davriga nisbatan 5,7 % ga ko'payib, 51,9 % ni tashkil etdi.


### Bino va inshootlar qurilishining hajmi va o'sish sur'ati



### Fuqarolik obyektlari qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 24,6 % ni tashkil etdi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 75,4 % ni tashkil etdi.

## Fuqarolik obyektlari qurilishining hajmi va o'sish sur'ati




### Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlaringin asosiy ko'rsatkichlari


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2024-yilning mos davriga nisbatan 7,1 % ga kamaydi va 4,1 % ni tashkil etdi.

Qolgan 95,9 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 7,0 % ga ko'paydi.

### Korxonalar turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



### IV. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-iyun oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 395,5 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 83,4 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 2,3 % ga kamayib, 8,6 % ni tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 55,8 % i to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,5 % ga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 111,1 % ni tashkil etgan holda 2 578,4 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

### **Shahar va tumanlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
<b>Qoraqalpog'iston Resp.</b>	<b>395,5</b>	<b>2 578,4</b>	<b>1 644,9</b>	<b>83,4</b>	<b>111,1</b>	<b>104,3</b>
Nukus shahri tumanlar	13,2	808,8	86,0	20,5	110,3	101,5
Amudaryo	3,2	109,1	86,1	31,3	114,5	104,6
Beruniy	10,7	131,6	84,8	197,6	98,0	105,9
Bo'zotov	2,1	39,5	7,7	97,7	159,6	97,9
Qorao'zak	9,3	32,5	8,4	242,7	121,9	90,1
Kegeyli	5,8	45,9	12,4	36,0	128,9	100,9
Qo'ng'irot	49,2	80,6	27,2	77,8	146,4	101,8
Qonliko'l	3,9	12,7	30,6	140,9	213,8	97,3
Mo'ynoq	35,8	70,4	13,1	34,6	121,5	106,7
Nukus	9,1	109,4	64,5	181,0	113,4	102,0
Taxiatosh	36,8	95,1	20,4	128,6	97,9	103,2
Taxtako'pir	15,3	19,1	8,0	900,8	76,8	112,0
To'rtko'l	37,8	240,6	116,9	77,3	125,7	108,2
Xo'jayli	1,4	134,1	45,3	84,7	100,8	104,5
Chimboy	3,2	32,5	50,6	64,3	175,3	103,7
Shumanay	8,6	25,0	17,2	328,2	128,9	103,3
Ellikqal'a	35,8	181,8	20,9	164,1	94,6	107,4

Norasmiy sektorda qurilish ishlaringin ulushi 35,6 % ni yoki 1 644,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 104,3 % ni tashkil etdi. Shundan 1 499,8 mlrd so'mni yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 104,3 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 1,1 mlrd so'mni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 144,1 mlrd so'mni tashkil etdi.



## **V. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar**

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital

va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiyomatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarni montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmag'an holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);

b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;

c) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi statistika hisobotlari;

d) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuvi ma'lumotlari;

e) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Investitsiyalar va qurilish  
statistikasi bo'limi

**Ijrochi:**  
D. Abdullaeva

**Manzil:**  
230103, Nukus, A. Dosnazarov  
ko'chasi, 97 a-uy  
**Pochta:** info@qrstat.uz  
Tel.: +998 (61) 222-75-91